



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 7-avgust

347-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**Viloyatda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish
xizmatlari uchun to‘lov narxlari (tariflar)ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF 5-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4845-son, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2024-yil 13-iyundagi VI-74-71-4-0-K/24-son qarorlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2024-yil 13-iyundagi VI-74-71-4-0-K/24-son qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Qashqadaryo viloyatining (*Qarshi shahridan tashqari*) tuman (shahar)larida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish, joylashtirish xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha yangi tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (B.Yazdanov) hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi (D.Allayev)ga qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash hamda olib chiqib ketish xizmatlari uchun yangi tariflar belgilanganligini aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar e‘tiboriga yetkazish vazifasi topshirilsin.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF 5-son Farmonining 10-bandiga

asosan sanoat chiqindilari, suyuq maishiy chiqindilar, yirik hajmli maishiy chiqindilar, qurilish chiqindilari va tuproq, tibbiyot chiqindilari hamda zaharli-kimyoviy chiqindilarni olib chiqib ketish uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan kelishilgan narxlarda alohida to'lovlar evaziga amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati (A.Sodiqov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi hamda belgilangan tartibda Qashqadaryo viloyati hokimligining rasmiy veb-sayti (qashqadaryo.uz)ga joylashtirilishini ta'minlash yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov va viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmlariga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 7-avgustdagi
347-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash hamda olib chiqib ketish, chiqindi
poligonlariga joylashtirish xizmatlari bo'yicha yangi
TARIFLAR**

Hudud nomi	Yangi tarif darajalari (so'mda)			
	Aholiga 1 (bir) kishi uchun bir oyda		Yuridik maqomga ega subyektlardan 1 m ³ kub uchun	
	QQSsiz	12% QQS bilan	QQS siz	12% QQS bilan
Viloyat (Qarshi shahridan tashqari) tuman (shahar)larida	4 224	4 800	66 880	76 000

Izoh: O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan, O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-son Qonuni 4-moddasi 16-bandiga muvofiq joriy yilning 1-apreldan boshlab Soliq kodeksi 264-moddasining uchinchi qismida belgilangan sanitariya jihatdan tozalash bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni realizatsiya qilishga doir aylanmaga nol darajali stavka bo'yicha soliq solinishi bekor qilinganligi inobatga olindi.

Qo'shimcha qiymat solig'i stavkasida o'zgarishlar bo'lgan taqdirda mazkur narxlar mos ravishda o'zgaradi.